UO‘K 81’42:81’27(=1/=8)

DISKURSDA SOTSIOLOGIK FAKTOR

H.R. Zakirova

Maqolada stratifikatsion va situativ diskurslarning sotsiolingvistik tahlili berilgan. Stratifikatsion diskursning o‘zgarmas belgilari va o‘zgaruvchi belgilari aniqlangan. O‘zgarmas belgilarga ko‘ra kasbga xoslangan, jinsga xoslangan, hududga xoslangan diskurslar ajratildi. O‘zgaruvchi belgilari bo‘yicha ma’lumot darajasiga xoslangan hamda yoshga xoslangan diskurslar farqlandi. Mazkur belgilarga ko‘ra turli sotsial guruhlardan olingan anketa topshiriqlari asosida diskurslarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *diskurs, stratifikatsion, situativ, sotsiolingvistika, o‘zgaruvchi belgilar, o‘zgarmas belgilar.*

В статье представлен социолингвистический анализ стратификационных и ситуативных дискурсов. Выявлены постоянные и переменные черты стратификационного дискурса. По инвариантным признакам были выделены дискурсы, специфичные для профессии, пола и региона. По вариативным признакам были выделены дискурсы, специфичные для уровня образования, и дискурсы, специфичные для возраста. В соответствии с этими характеристиками были выявлены специфические особенности дискурсов на основе анкет, полученных от различных социальных групп.

Ключевые слова: *дискурс, стратификационные, ситуативные, социолингвистика, изменяющие признаки, не изменяющие признаки.*

Til insonlar ongida mohiyat sifatida yashar ekan, har bir individ nutqida voqelanib, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni ro‘yobga chiqaruvchi asosiy omil bo‘ladi. Shunday ekan, til jamiyat bilan, uning kechasi, buguni, ertasi bilan chambarchas bog‘liqdir. “Jamiyatdagi har qanday o‘zgarish, ijtimoiy taraqqiyot bevosita tilda ham o‘z aksini topadi. Tilning taraqqiyoti jamiyat taraqqiyotiga bog‘liqdir. Uning rivojlanish darajasi inson tafakkurining saviyasiga, taraqqiyoti darajasiga mos kelishi shart, shu bilan birga ikkalasining rivojlanishidagi tendensiya, insoniyat jamiyati taraqqiyoti darajasi va asosiy rivojlanish tendensiyalari bilan belgilanadi” [1. B. 5].

M.Makarovning fikricha, “jumlaning murakkab tuzilishidan harakatlar yig‘indisining ajratilishi ko‘pchilik tilshunoslarning tilga, ayniqsa, uning kommunikativ funksiyasiga bo‘lgan munosabatlarining o‘zgarishiga olib keldi. Analitik falsafada, so‘ng pragmatikada jumlaga sotsial olamning atomar fakti sifatida qarash yangi nazariy yo‘nalishni yuzaga keltirdi. Bunda diskurs aktlar ketma-ketligi yoki yig‘indisi sifatida tahlil qilinadi. Bu til shakllarining aktlarni “moddiylashtirish”ga qaratilgan grammatik tahlilidan ham, chinlik-yolg‘onlik belgisi bo‘yicha propozitsiyalarni aktuallashtiruvchi semantik tahlilidan ham tubdan farq qiladi” [2. B. 86].

Demak, diskurs nutqiy aktning eng kichik bo‘lagi bo‘lib, uning tahlilida barcha omillar – lingvistik, ekstralingvistik, pragmatik kabi omillar e’tiborga olinishi zarur. Darhaqiqat, muloqot jarayonida biz alohida olingan birliklarning shakliy yoki mazmuniy mundarijasi bilan emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unlikdagi umumiy xossalari asosida fikr almashamiz. Bu xususida L.V.Shcherbaning fikrlari o‘rinlidir. Uning fikricha, “til har safar aniq bir maqsadga, ya’ni o‘z fikr va hissiyotlarini aniq va qulay ifodalashga yo‘naltirilgan inson faoliyatidir” [3. B. 102].

“Sotsiolingvistika diqqat-e’tiborni ijtimoiy guruhlar va ular tomonidan foydalaniladigan tilning o‘zgaruvchan birliklariga qaratishga, bu o‘zgaruvchan birliklarni ijtimoiy fanlarning: yosh, jins, ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy sinfga tegishlilik, hududiy katta guruh maqom va shu kabi an’anaviy demografik birliklar bilan bog‘lashga urinadi. Shuningdek, keyingi paytlarda til formalari va ijtimoiy funksiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni mikro (tor) darajada, ya’ni guruh ichidagi interaksiyada, til va ijtimoiy masshtabdagi funksiyalarni makro darajada, ya’ni guruhlar o‘rtasidagi interaksiyada belgilashga urinishlar ham bo‘lmoqda” [4. B. 43].

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, tilning yashovchanligi lisoniy shakllarning mavhum sistemasiga emas, bilki muayyan muloqot jarayonlarining yashovchanligiga bog‘liqdir. Shu sababli diskursiv tadqiqotlar markazida til egasi sifatida inson fakti turishi lozim.

Muayyan sotsial guruh vakillari nutqida zaruriylik, mutanosiblik, muqobillik tushunchalari jamlanadi, nutqiy akt vositasida jamiyatning milliy-tarixiy xususiyatlari aks etadi. Shu kabi diskursda ham muayyan

sotsial guruh xususiyatlari aks etadi. Diskursda sotsial faktorlar muhim ahamiyatga ega, u kommunikantlar o‘rtasidagi sotsial munosabatlarni belgilaydi. Shu sababli ularga yuqori ijtimoiy variantlilik xos. Diskursning sotsial variantliligini o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra ikki guruhga bo‘lish mumkin: stratifikatsion (ijtimoiy guruhga xoslangan) diskurs; situativ (ijtimoiy vaziyatga xoslangan) diskurs.

N.M.Firsova bu ikki o‘lchamni til va nutq variantligini belgilash uchun ishlatgan [5. B. 15]. Ko‘rinadiki, stratifikatsion variantlilik ijtimoiy guruhlarga xoslangan ichki belgilarni namoyon etsa, situativ variantlilik ijtimoiy vaziyatga xoslangan tashqi belgilarni ko‘rsatadi.

Stratifikatsion diskurs – diskursning ijtimoiy guruhga xoslangan turi. Diskursning ijtimoiy guruhga xoslangan variativligi jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan bevosita aloqada bo‘ladi, u turli xil ijtimoiy qatlam hamda guruhlarda ko‘zga tashlanadigan til va nutqqa xos tafovutlarida o‘z ifodasini topadi. Ijtimoiy guruhga xoslangan variativlik bilan aloqador bo‘lgan tushunchalar qatoriga shaxsning ijtimoiy va sotsial-demografik, ya’ni sinfiy, ijtimoiy guruhga mansubligi, kasbi, ma’lumot darajasi, jinsi, yoshi kabi belgilar kiradi. Bu belgilar o‘zgarmas va o‘zgaruvchi belgilarga bo‘linadi. O‘zgaruvchi belgilar diskursga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, albatta. Buni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Stratifikatsion diskurs	
O‘zgarmas belgilar	*O‘zgaruvchi belgilar*
kasbga xoslangan diskurs	ma’lumot darajasiga xoslangan diskurs
jinsga xoslangan diskurs	yoshga xoslangan diskurs
hududga xoslangan diskurs	

Diskursda kasbiy xoslanish. Diskursning kasbga xoslangan variantliligida kommunikatsiya ishtirokchilarining qaysi kasb vakili ekanligi muhimdir, matn interpretatsiyasi tinglovchining qaysi kasbga mansubligiga ko‘ra aniqlanadi. Nutqiy aktda ma’lum kasbga taalluqli guruhlar o‘rtasidagi farq ularning xususiy nutqlaridagi o‘zi mansub bo‘lgan kasbiy belgilari bilan ajralib turadi. Bu belgilardan biri ularning so‘z qo‘llashi bo‘lsa, ikkinchisi fikr doirasidir.

Birinchi belgi so‘z qo‘llash bo‘lib, bunda har bir kasb vakillarining o‘ziga xos faol leksikasi bo‘ladi. Jumladan, ma’lum bir savolga turli kasb egalari turlicha so‘z qo‘llab javob berishadi. Masalan, ko‘chadan o‘tayotgan kishidan biror obyektning manzili so‘ralsa, quyidagi javoblarni olishi mumkin:

1-vaziyat. *Ko‘chadan to‘g‘riga yursangiz, o‘ng qo‘lda 6-maktab keladi. O‘sha maktabning yonidagi ko‘chaga burilasiz.*

2-vaziyat. *Ko‘chadan to‘g‘ri ketaverasizlar, chap tomonda apteka ko‘rinadi. Aptekaning ro‘parasida ko‘cha bor. O‘sha ko‘chaga kirasizlar.*

3-vaziyat. *Ko‘chadan burilmay to‘g‘ri kateversangiz, guzar ko‘rinadi. Choyxona, sartaroshxona bor. Undan o‘tib, o‘ng qo‘ldagi birinchi ko‘chaga burilasiz.*

Yuqoridagi diskurslarni tahlil qilsak, uchala diskursning uch xil kasb a’zolarining javoblari ekanligini bemalol ajratish mumkin. Chunki har bir sotsial guruh vakilining matn interpretatsiyasi o‘ziga xos bo‘ladi, obyektni topish uchun ular o‘zlariga yaxshi tanish bo‘lgan joylarni mo‘ljal qilishadi va shunga binoan o‘z leksikasining faol so‘zlaridan foydalanishadi. Ya’ni o‘qituvchi mo‘ljal uchun maktab binosini olsa, tibbiyot xodimi aptekani oladi, oddiy fuqaro hammaga tanish bo‘lgan guzarni mo‘ljallaydi. Demak, ma’lum sotsial guruh vakillarining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, bu xususiyatlar ularning nutqida aks etadi.

Ikkinchi belgi fikr doirasi bo‘lib, bunda ma’lum kasb egalari diskursni o‘zlaricha sharhlaydi. O‘qituvchi matnning tarbiyaviy tomoniga e’tiborni qaratsa, tibbiyot xodimi sog‘liqqa ta’sirini o‘ylaydi, psixolog ruhiyatga ta’sirini ko‘radi.

Ushbu maqolamizda O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘.Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobidagi ayrim mikromatnlarni diskursiv tahlil qilishga urinib ko‘rdik.

Masalan, quyidagi diskurs haqida turli kasb egalarining fikrlari bilan tanishib chiqaylik:

Eng aqlli jonivor

Dunyodagi eng aqlli jonivor – baliq! Birinchidan, soqov! Ikkinchidan, muttasil dumini likillatadi!

1-vaziyat. *Baliq qo‘lsiz, oyoqsiz, tilsiz ham yashay oladi. Chunki hamma narsa ham qo‘l-oyoqqa bog‘liq emas, ularsiz ham kundalik turmush o‘taveradi. Uning aqlli ekanligini “ko‘p gapirgan, kam biladi” iborasi to‘ldirib turibdi. U soqov ekan, demak, ko‘p narsani biladi.*

Dumini likillatish bilan insonni o‘ziga maftun qila oladi. Shuning uchun baliqlar akvariumda alohida e’tibor bilan parvarish qilinadi, nobud bo‘lsa, qayg‘uriladi.

Inson ushbu ikki xislatni o‘zida mujassam eta olsa, odamlarga manzur bo‘ladi. Kam gap, ko‘p harakat baxt keltiradi. Soqolini sotgan qariyadan mehnatini sotgan yosh yaxshi.

2-vaziyat. *Har bir kasallikning asosi asab sistemasidir. Agar kishilar baliqqa o‘xshab soqov bo‘lishsa, kamroq kasal bo‘lishadi. Doim harakatda bo‘lish ham sog‘liqqa foydali. Shuning uchun ham baliqni aqlli deyish mumkin.*

3-vaziyat. *Baliqning soqovligi insonga qo‘l keladi, (ayniqsa, stress holatda). Chunki doim ham qushlarning sayrashi yoki boshqa tovushlar odamlarga yoqmaydi, odamning stress holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin. Baliqning dumini bir maromda likillatishi esa odamlarning asab tizimini tinchlantiradi. Aqlli jonivor shunday qilib odamlarning asabini tinchlantirish uchun yordam beradi.*

1-vaziyatdagi diskurs umumiy o‘rta maxsus ta’lim tizimidagi o‘qituvchiga tegishli. O‘qituvchi har qanday vaziyatda tarbiyaga, odobga e’tibor beradi, shuning uchun ham yuqoridagi fikrlari orqali kamgaplik fazilatini yoritishga harakat qiladi. Hatto “dumini likillatadi” ta’rifini ham tarbiyaga burib, doimo harakatda bo‘lish va harakatlari orqali insonlarga manzur bo‘lish lozimligini uqtiradi. Uning qisqacha shiori: “*Kam gap, ko‘p harakat baxt keltiradi*”. Ko‘rinadiki, o‘qituvchi kasbiga tegishli diskurs belgilari quyidagilar:

1. Ifodalilik. Diskursdagi “*ko‘p gapirgan, kam biladi*”, “*Kamgap, ko‘p harakat baxt keltiradi*” iboralari bunga dalil bo‘la oladi.

2. Umumlashtirish. Diskursdagi “*U soqov ekan, demak, ko‘p narsani biladi*”, “*Dumini likillatish bilan insonni o‘ziga maftun qila oladi*”, “*Inson ushbu ikki xislatni o‘zida mujassam eta olsa, odamlarga manzur bo‘ladi*” kabi xulosalar buning isbotidir.

3. Odob va tarbiyaga yo‘naltirilganlik. Diskursda “Qanday bo‘lsak, insonlarga manzur bo‘lamiz?” degan savolga javob beriladi.

2-vaziyatdagi diskurs qishloq vrachlik punkti shifokoriga tegishli. Shifokordan kasallik haqida so‘ralsa, u juda ko‘p gapirishi mumkin. Ammo diskursni sharhlashni so‘raganimizda yuqoridagicha qisqa javob berdi. Javob ham “baliq aqllimi?” degan savolga javob tariqasida olindi. Uning shiori: “Doimo sog‘ bo‘lishga harakat qilish kerak”. Shifokor kasbiga tegish diskurs belgilari quyidagilar:

1. Qisqalik. Diskurs to‘rt jumladan iborat.

2. Maqsadlilik. Kishilar doimo sog‘ bo‘lishi uchun asabiylashmaslik va doimo harakatda bo‘lish kerakligi ta’kidlanadi.

3. Umumlashtirish. “...baliqni aqlli deyish mumkin”, ya’ni baliqqa o‘xshagan kishi aqlli bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, ma’lum bir diskursni turli kasb egalari turlicha qabul qiladi va turlicha sharhlaydi.

Diskursda yoshga xoslanish.

O‘zbek millatida yoshi katta kishilarga hurmat bildirish va shunga yarasha muomalada bo‘lish odatiy holdir. Suhbat jarayonidagi samimiyatga, suhbatdoshga yon berishga harakat qilish kattalarga xos bo‘lsa, tortishuvga tez kirishib, tez xulosa chiqarish yoshlarga xosdir.

Shu sababdan diskursning interpretatsiyasida yosh faktori muhim ahamiyatga ega. Diskursda yosh faktorining belgilari quyidagilar:

1. *Hayotiy tajriba, ilm*. Yoshi katta kishilarning hayot tajribasi, ilmi, fikrlashi diskursni o‘ziga xos holatda interpretatsiya qiladi. Ulardagi hayotiy tajriba, bilim va ko‘nikma diskursni chuqur anglashga asos bo‘ladi.

2. *Nutqiy vaziyat*. Kattalar bilan muloqotga kirishishda nutqiy vaziyatga e’tibor berilishi kerak bo‘ladi. Chunki kattalar ko‘proq ish bilan band bo‘lishadi. Kichiklar esa juda qiziquvchan bo‘ladi, eshitgan har narsa, voqea yuzasidan o‘zlaricha xulosa ham chiqarishadi. Diskursni tushunishda kichik yoshdagi bolalarning fikrlariga, o‘zlariga xos mulohazalariga bee’tibor bo‘lish mumkin emas. Masalan, “Uch cho‘chqacha” haqidagi ertakni eshitayotgan bolaning: “Nega ular yolg‘iz yashashadi, ota-onasi yo‘qmi?” – degan savoli yoki “Qizil shapkacha” ertagini eshitayotgan bolaning “Bo‘ri Qizil shapkachani ko‘rganda yeb qo‘ysa bo‘lmasmidi?” degan savollari yosh bolalarda ham diskursning o‘ziga xos interpretatsiyasi mavjudligini bildiradi.

3. *Mehnatga munosabat*. Diskurs tushunish interpretatsiyasi kattalar bilan kichiklarning mehnatga munosabatiga ko‘ra ham farqlanadi. Kattalar uni tirikchilik, yashash uchun kurash deb tushunishadi. Hayotning go‘zal tomonlarinigina ko‘ruvchi kichkintoylar uchun mehnat mazmunli bir o‘yinday gap, ular buyurilgan ishni zavq-shavq bilan qilishadi, mehnatni zahmat deb tushunishmaydi.

4. *Ma’naviy boylik*. Kattalar va kichiklar interpretatsiyasida ma’naviy jihatdan ham tafovut bo‘ladi. Kichkintoylarning ham jajjigina, juda go‘zal va sog‘lom dunyosi bor. Shu sababdan kichiklar har qanday voqea, hodisaning zamirida faqat yaxshilikni ko‘radi. Chunki ertaklar ham doim “murod-u maqsadiga yetibdi” deb yakunlanadi.

5. *So‘z boyligi*. Kattalar va kichiklar interpretatsiyasida so‘z boyligi jihatidan ham farq ko‘rinadi. O‘z-o‘zidan kattalarning so‘z boyligi katta bo‘ladi. Ammo kattalar so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan so‘zlarni ishlatsa, yosh bolalar eshitgan ertak yoki ko‘rgan multfilmdagi badiiy uslubga xos bo‘lgan so‘zlarni eslab qoladi va o‘z nutqida ishlatadi.

Diskursda yoshga xoslanishni tahlil qilish uchun quyidagi guruhlarni ajratib oldik:

1-guruh	2-guruh	3-guruh
18–25 yosh oralig‘idagi yoshlar	30–45 yosh oralig‘idagi kishilar	50 yosh va unday yuqori bo‘lgan kishilar.

Quyidagi diskursni guruhlar bo‘yicha ko‘rib chiqamiz.

Sopol va oltin

Sopol tovog‘ing sinsa, dod sol: kesakka aylanadi. Tilla idishing sinsa, parvo qilma: bahosi tushmaydi.

1-guruh. *Uyimizda sopol idish sinsa, uni qayta ishlatib bo‘lmaydi, u yaroqsiz holga keladi. Tilla idish sinsa, uni hech bir inson tashlab yubormaydi. Sababi uning materiali toza, uni qayta ta’mirlash mumkin.*

2-guruh. *Har bir narsaga, uning foydalilik darajasi nuqtai nazaridan qarash har qachon ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi yoki aksincha...*

3-guruh. *Sopol tovoq ilmsizlikdir. Agar yosh davringda ilm o‘rganmasang, bu davring kesakka aylanadi. Tilla idish bu – ilmdir. Har qancha sindirishsa ham, ilming o‘zingda qoladi. Sening ilmingni hech kim tortib ololmaydi.*

1-guruh vakili birinchi bosqich talabasi bo‘lib, matnni to‘g‘ri ma’noda qabul qilganligi ko‘rinib turibdi. Sopol va tilla idishni qayta ta’mirlash mumkinmi yoki yo‘qmi, degan savol asosida fikr yuritgan.

2-guruh vakili diskursida ham matn to‘g‘ri ma’noda qabul qilingan va shu nuqtayi nazardan javob berilgan. Bu javob shu yoshdagi kishilarga mos bo‘lib, unda har narsaning qimmati foydalilik darajasiga ko‘ra belgilanmasligi qisqacha ta’kidlangan.

3-guruh vakili diskursida ma’no ancha chuqur bo‘lib, asoslab ham berilgan. U sopol idishni yoshlik davriga taqqoslab, uning ilm o‘rganmasdan bekor o‘tishini sopol idishning sinishiga o‘xshatyapti. Ilm o‘rganmasdan o‘tib ketgan yoshlik davrining qadri kesakka teng bo‘lishini ta’kidlayapti. Sopol idishning sinish xavfi qancha ko‘p bo‘lsa, yoshlik davrining o‘tib ketish xavfi ham shunchadir. Ilmli odam esa tilla idishga o‘xshatilyapti. U odam bu dunyodan o‘tib ketsa-da, ilmi qolishini, uning qadri yo‘qolmasligini aytmoqchi.

1-guruh vakillarining yuqoridagi “*Sopol tovog‘ing sinsa, dod sol: kesakka aylanadi. Tilla idishing sinsa, parvo qilma: bahosi tushmaydi*” matni asosida to‘plangan diskurslarini tahlil qilib ko‘raylik, chunki yuqoridagi bitta misol bilan bu guruh vakillarining diskurs xususiyatlarini aniqlay olmaymiz. Quyidagi diskurslarni ko‘zdan kechiraylik:

1. Bilimli insonning boshiga kulfat kelsa ham, u bilimliligicha qoladi. U o‘z aql-u zakovati bilan har xil muammolarni bilimsiz insondan ko‘ra tez va oson hal eta oladi. Menimcha, sopol tovoq bu – ilmsiz inson, tilla idish – ilmli inson.

2. *Men buni ichki va tashqi go‘zallikka o‘xshatdim. Sopol tovoq bu – ichki go‘zallikdir, tilla idish esa tashqi go‘zallik. Tashqi go‘zallik ko‘pchilikka yoqsa ham, lekin odamning ichki go‘zalligi, ya’ni fikrlashi, odobi chiroyli bo‘lishi kerak. Shuning uchun sopol tovog‘ing sinsa dod sol, kesakka aylanadi, deb yozilgan.*

3. *Sopol tovog‘ing sinsa, kuyinma, u kesakka aylanadi. Yana shu kesakdan sopol tovoq yasab olish mumkin. Tilla idishing sinsa, parvo qilma deyilyapti. Aslida, tilla idish sinsa, dod solish kerak, chunki u qimmat turadi. Sopol tovoq bilan ma’nosi almashib qolibdi. Sopol tovoq sinsa, parvo qilmaslik kerak, bahosi ham tushmaydi.*

4. *Oltin o‘tda bilinadi, ya’ni tilla buyum sinsa ham tillaligicha qoladi. Sopol esa oddiy loyga aylanib, yo‘q bo‘lib ketadi.*

5. *Sopol tuproqdan yasaladi. Tilla qimmatbaho narsa, biz uni sopolga qiyoslar ekanmiz, ularning hayotdagi tutgan o‘rniga qaraymiz. Shu ma’noda men sopolni insonning ko‘ngliga qiyosladim. Chunki ko‘ngil nozik narsa, u sinsa qaytib tiklanmaydi, sopol ham.*

Tilla idishni rostgo‘y, adolatli inson sifatida ko‘rgim keldi, chunki ba’zi insonlarga nisbatan “naqd tillaning o‘zginasi”, “tilla bola-da” deb qo‘yamiz. Siz qanchalik yaxshi inson bo‘lsangiz, sizni hayotda hamma shunday ko‘radi. Tilla baribir tillaligicha qoladi, yaxshi inson ham.

6. *Inson hayoti davomida turli xil sinovlarga duch keladi. Yaxshi inson, irodali inson sinovlarga, tuhmatlarga duch kelsa ham, o‘z mavqeyini, qadr-qimmatini yo‘qotmaydi. Irodasi bo‘sh, o‘z fikri bo‘lmagan inson hayot sinovlariga duch kelsa, o‘zini yo‘qotib qo‘yadi, boshqalar fikriga qo‘shilib ketadi. O‘z qadr-qimmatini yo‘qotadi.*

Ko‘rinadiki, yoshi teng bo‘lgan talabalar diskurslarining ham o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular bir matnni o‘zlarining bilimlari, mustaqil fikrlashlari darajasida izohlashgan. Hatto matn ma’nosini teskarisiga sharhlagan yoshlarimiz ham uchraganki, bu ularning bilimi hali bunday matnlarni tahlil qilish darajasiga yetmaganligini ko‘rsatadi. Yuqoridagi matn asosida 11 nafar talabadan to‘plangan diskurslar tahlili natijasida shu narsa aniqlandiki, ular, asosan, quyidagi zidlanishlarda o‘z fikrlarini bildirishgan:

№	Tilla idish			Sopol tovoq		
		+	-		+	-
1	Boylik			Bilim		
2	Boylik			kasb-hunar		
3	Boylik			vaqt (mehr-muhabbat, qadr-qimmat)		
4	yaxshi inson			Ko‘ngil		
5	yaxshi inson			ikki yuzlamachi inson		1
6	tashqi go‘zallik		1	ichki go‘zallik		
7	ilmli inson			ilmsiz inson		1
8	yomon inson		1	yaxshi inson		

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yoshlarning diskursida qarama-qarshi fikrlar mavjud. Tilla idish va sopol tovoqning ijobiy yoki salbiy tushunilishi ularga turli nuqtayi nazardan yondashilganidan aniqlanadi. Jumladan, tilla idishni yaxshi insonga nisbat berishda uning qadri yo‘qolmasligiga tayanilgan bo‘lsa, sopol tovoqning ikkiyuzlamachi, irodasiz, e’tiqodsiz insonga nisbat berilishida uning mo‘rt ekanligiga tayanilgan. Yoki tilla idishning yomon insonga nisbat berilishida uning kam ishlatilishi e’tiborga olingan bo‘lsa, sopol idishning yaxshi odamga nisbat berilishi esa uning odamlarga tinimsiz xizmat qilishiga asoslangan.

Quyidagi diskursni ham tahlil qilib ko‘raylik:

Kulgi va yig‘i

Kulishni bilmaydigan odam baxtsiz odam, yig‘lashni bilmaydigan odam ikki hissa baxtsizdir.

1-guruh. *Darhaqiqat, kulishni bilmaydigan odam baxtsizdir. Eskilardan qolgan gap bor: “Kulsang, yosharasan”, “Kulsang umring uzoq bo‘ladi”, – deyishadi.*

Hayot aslida ko‘zgu. Unga xo‘mrayib boqsang, u ham senga xo‘mrayadi. Unga kulib boqsang, u ham senga kulib boqadi. Shuning uchun bir marta berilgan bu hayotda kulib, quvnoq bo‘lib, baxtli yashashga harakat qilib yurish kerak. Endi, yig‘lashga kelsak, inson dardlarini to‘kib yig‘lolmasa, bu juda katta baxtsizlik.

2-guruh. *Insonlarning ikki holatida doim izoh talab etiladi: “Nega kulyapti?”, “Nega yig‘layapti?”. Inson ikki holatda kuladi: birinchisi – quvonchdan; ikkinchisi – g‘azabdan. Inson ikki holatda yig‘laydi: birinchisi – baxtdan, ikkinchisi – baxtsizlikdan. Lekin inson baribir kulyaptimi, yig‘layaptimi, u – baxtli, chunki unda aql va qalb harakatdadir.*

3-guruh. *Kulishni bilmaydigan odam baxildir. Chunki u boshqalarning xursandchiligini ko‘ra olmaydi, shuning uchun xursand bo‘lmaydi. Yig‘ini bilmaydigan odam esa xudbindir: u o‘zgalar dardini anglamaydi, o‘zgalar uchun ko‘z yosh to‘ka olmaydi. Shodlikni, sevinishni istagan dardnoklar esa shoirning quyidagi so‘zlarini aytadilar:*

Nimaga odamlar shod-xurram, mamnun,
Bizlar odammasmi, Osima!

Uchala guruh vakillari diskurslarining tahlili muallifning yosh xususiyati o‘z ifodasini topganligini ko‘ramiz. Jumladan, birinchi guruh vakili diskursida kulgi baxtlilik belgisi sifatida qaralmoqda, yig‘i esa inson ichidagi dard-alamni yozish uchun zarur degan xulosaga kelinmoqda. Demak, inson ko‘proq kulib, baxtga intilib yashashi kerak degan tushuncha yoshlarga xos bo‘lib, kelajagi faqat nurli bo‘lishiga umidvorlik hissi bilan yo‘g‘rilgan. Ikkinchi guruh vakilining diskursida kulgi va yig‘i kengroq mushohada qilingan. Har ikki holatning ham ijobiy va salbiy jihatlari borligini aytib o‘tgan, qaysi holat bo‘lsa ham, ular qalb va aqlning mavjudligi belgisi sifatida qaralgan. Uchinchi guruh vakilining diskursi esa qisqa va lo‘nda bo‘lib, aniq xulosani bergan: kulishni bilmaydigan inson – baxil; yig‘lashni bilmaydigan inson – xudbin. Ko‘rinadiki, diskursda yoshga xoslanganlik fikrning chuqurligida, tushunchaning ifodalanishida, xulosa chiqarish va uni dalillashda ko‘rinadi.

Diskursda jinsiy xoslanish.

Diskurs jins jihatdan ham qator o‘ziga xosliklarga ega. Ayollar va erkaklar nutqi orasidagi farqli xususiyatlar masalasi bo‘yicha Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlari tillari misolida, shuningdek, yapon, rus, gruzin tillari materialida qator tadqiqotlar mavjud. Turkiyshunoslikda bu borada N.I.Grodekov (qozoq va qirg‘izlar misolida), Ye.D.Polivanov (Samarqand eroniylarining o‘zbekcha nutqi misolida), A.N.Samoylovich (qozoqlar va oltoylar misolida) kuzatishlari, shuningdek, qator turkiyshunos-dialektologlarning asarlarida mazkur masala bilan bog‘liq ko‘plab qaydlar bor.

V.M.Alpatov “Yaponiya. Til va jamiyat” (1988) nomli kitobida yapon ayollarining nutqi haqida ancha batafsil ma’lumot beradi va Yaponiyada hatto

maxsus ayollar tili (nutqi) mavjudligini, ayollar nutqi erkaklar nutqidan muloyimligi, nazokatliligi, shuningdek, ayrim maxsus til birliklari bilan farqlanib turishini ta'kidlaydi [6. B. 70].

O'zbek ayollari nutqining o'ziga xos xususiyatlari haqida tilshunoslarning kitob va maqolalarida qisqacha to'xtalib o'tilgan [7; 8. B. 62].

Erkak va ayollarning burchi va haq-huquqlardagi, mehnat taqsimotidagi farqlar qanchalik katta bo'lsa, diskursdagi farqlar ham shunchalik katta bo'ladi. Ayollarning turli davrlardagi ijtimoiy holatlari, ya'ni ayollarga bo'lgan munosabatlar, erkak va ayollar o'rtasidagi mehnat taqsimoti tilda, nutqda o'z ifodasini topadi. Diskursning mehnat taqsimoti bilan bog'liq holda jins jihatdan xoslanishining asosiy sababi mehnat, umuman faoliyat, ya'ni insonning doimiy ravishdagi mashg'ulotining uning jismiga va ruhiga ta'sir etishidadir.

V.M.Alpatov "Erkak va ayollar bir xil gapiradilarmi?" degan savolga javob izlar ekan, yapon ayollari ma'lumotlilik darajasi, ishlab chiqarishdagi ishtiroki va boshqa ko'pgina sohalarda erkaklarga yetib olganliklari, hatto o'zib ketayotganliklarini, shu bilan bog'liq holda, ularning nutqidagi farqlar ham tobora kamayib borayotganini ta'kidlab, xulosa sifatida quyidagilarni yozadi: "Erkak va ayollarning yapon tilidan foydalanishlaridagi farqli jihatlarning kelajagi haqida yapon mutaxassislari shunday bir umumiy to'xtamga kelmoqdalar: farq tobora kamayib bormoqda, aftidan, bundan keyin ham kamayib boradi, biroq u farqning tez kunda barham topishiga hech qanday asos yo'q. Yapon tilining erkak va ayollar nutqida qo'llanadigan variantlari, shubhasiz, ijtimoiy sabablarga bog'liq bo'lib qolaveradi".

Demak, diskurs ham aynan mana shunday chuqur ijtimoiy faktorlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sotsiolingvistik kategoriyadir.

Ko'rinadiki, diskursda insonga taalluqli bo'lgan biologik-fiziologik ko'rsatkichlar ham muhim ahamiyatga ega. Ular – jinsi, yoshi, sog'lig'i, jismoniy nuqsonlar mavjudligi yoki yo'qligi, gapirish usuli.

Diskursda jinsiy faktorning ham o'ziga xos belgilari mavjud:

1. Qat'iyatlilik, ko'ngli yumshoqlik. Erkaklar muayyan diskurs yuzasidan aniq xulosa chiqarishsa, ayollarda ko'pincha ikkilanish bo'ladi.

2. Aql va hissiyot. Erkaklarga nisbatan ayollarda hissiyot kuchli bo'ladi, shuning uchun ular ta'sirchan bo'lishadi.

3. Bosiqlik va tezoblik. Ma'lum matn yuzasidan erkaklar bosiqlik bilan shoshilmay fikr yuritishsa, ayollar unga ijobiy yoki salbiy fikr bildirishadi (ayollar diskursida erkaklarnikiga qaraganda salbiylikka yon bosish ko'proq uchrashining guvohi bo'ldik).

4. Kamgaplik va sergaplik. Erkaklar uzoq o'ylaydi, shu sababdan bo'lsa kerak, fikrini ham kam so'z bilan ifodalaydi. Ayollar fikrini ochib berish uchun gapni uzoqdan boshlaydi, natijada xulosaga yetib borguncha so'z miqdori o'z-o'zidan ko'payadi (ayollar nutqida erkaklarnikiga qaraganda maqollar ko'p ishlatilganligini ko'rdik).

5. Mushohada va qiziquvchanlik. Erkaklardan biror narsa so'ralsa, o'ylanib qolishadi. Ayollardan so'ralganida, ko'proq "Nimaga?" savolini eshitdik. Ayollar o'z qiziqishini qondirgandan keyingina fikr bildirishadi.

6. Kurash va ko'nikish. Erkaklar biror narsaga aniq qarshilik ko'rsatadi, ayollar esa ko'nikadi.

Quyidagi diskurslarni taqqoslaylik:

Sopol va oltin

Sopol tovog'ing sinsa, dod sol: kesakka aylanadi. Tilla idishing sinsa, parvo qilma: bahosi tushmaydi.

1-vaziyat. *Har bir narsaga, uning foydalilik darajasi nuqtai nazaridan qarash har qachon ham to'g'ri bo'lavermaydi yoki aksincha...*

2-vaziyat. *Har doim ham yutaman degan odam yanglishadi. Inson yutqazish va yo'qotishlarga ko'nikib yashaydi. Sopol-u tilla idishlarning sinishiga ham. Biroq, asl va soxtani kech anglaydi inson doimo.*

Ikkala vaziyatni solishtirsak, birinchi diskurs qisqaligi, mulohazaga chaqirishi bilan erkak jinsiga oidligi ko'rinadi. Ikkinchi diskursda "ko'nikish" so'zi ishlatilgan, chunki ko'proq ayollar ko'nikib yashaydi, biror narsaning yoki voqeaning mohiyatini "kech" tushunishi ushbu diskursning ayol jinsiga oidligini bildiradi.

Quyidagi diskurslarni taqqoslaylik:

Eng aqlli jonivor

Dunyoda eng aqlli jonivor – baliq! Birinchidan, soqov! Ikkinchidan, muttasil dumini likillatadi!

1-vaziyat. *Shunday beozor jonivorning ham ayblari anchagina ekan-ku! Agar u mulozim bo'lsa u-u-z-oo-qqa boradi. Ne-ne hukmdorlar kelib ketishi mumkin, lekin u o'zgarmaydi. Darvoqe, bunday tabiatli "jonivor"lar aksariyat hukmdorlarga yoqqan.*

2-vaziyat. *Har bir odamning boshiga balo o'z tilidan keladi. Doimo samimiy bo'lish esa kutilmagan balodan saqlaydi.*

Ushbu diskurslar bir matnning ikki xil talqinidir. Ko‘rinadiki, ikkinchi diskurs erkak kishi jinsiga oid bo‘lib, qisqaligi bilan farqlanadi va ijobiylik ma’nosiga ega. Ya’ni soqovlik ko‘p holatlarda foyda keltirishi ta’kidlanadi, hatto salbiy ma’noga ega bo‘lgan “likillatadi” so‘zi ham ijobiy talqin qilinadi – “samimiylik” bilan izohlanadi.

Birinchi diskurs ayol jinsiga mansub bo‘lib, unda *likillatadi* so‘zi kommunikativ mazmunning salbiy ma’noga ega ekanligiga asoslanadi. Demak, diskursda yashiringan informativ mazmun quyidagicha: baliqning soqovligi umuman hech narsaga e’tiroz bildirmasligini, muttasil dumini likillatishi esa xushomadgo‘yligini bildiradi. Shunga ko‘ra, *eng aqlli* degan ta’rif ham majoziy ma’noga ega.

Ushbu diskursning yana bir necha variantlarini ko‘rib chiqaylik.

1. *Dunyoda jonivorlarning juda ko‘p turi mavjud. Bular orasida baliq juda bebaho jonivor. Uning zarari yo‘q. U odamga qandaydir ruh bag‘ishlaydi, charchog‘ini chiqaradi.*

2. *Soqovligi uchun kerakli, keraksiz joyda noo‘rin gapirib qo‘ymaydi, bekorchi safsatalar sotmaydi. Dumini muttasil likillatishi serharakat va mehnatkash ekanligini bildiradi, bundan tashqari sezgir, serg‘ayrat ekanligi nazarda tutiladi.*

3. *Har doim gap qaytarmay “xo‘p” deydigan, doimo o‘zidan ustun bo‘lgan insonlar xizmatida shay turuvchi inson deb atash mumkin. Bunday insonlarni har doim ham ijobiy baholash mumkinmi?*

4. *Baliqning soqovligi aqlli insonlarning kamgap bo‘lishi kerakligini (ilmi chuqur bo‘lgan inson kam gapiradi, u ko‘p tinglaydi), muttasil dumini harakatga keltirishi aqlli insonlarning doimo mehnat bilan shug‘ullanishini (“qo‘ling mehnatda, qalbing Allohda bo‘lsin”) bildiradi.*

Yuqoridagi diskurslardan faqat to‘rtinchi diskurs erkak jinsiga mansubdir. Ushbu diskursning to‘qqiz xil variantini (to‘rt nafar erkak va besh nafar ayol kishi) tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

Jins	1-belgi (baliqning soqovligi)		2-belgi (muttasil dumini likillatishi)	
	ijobiy	salbiy	ijobiy	salbiy
Erkak	1 1 1 1	0 0 0 0	1 1 1 1	0 0 0 0
Ayol	1 1 1 0	1 1 0 0	1 1 0 0	1 1 1 0

Jadvaldan ko‘rinadiki, erkak kishilar 100% ijobiy fikr bildirganlar. Besh ayolning ikkitasi har ikkala belgini ham salbiy ma’noga ega ekanligini, bittasi esa “baliqning soqovligi” ijobiy, “muttasil dumini likillatishi” salbiy belgi ekanligini ta’kidlagan.

Diskursda jinsiy xoslanish so‘zlovchining nutqi orqali ham ko‘rinadi. Masalan, quyidagi diskurslarni solishtiraylik:

– Bu yerda, og‘ayni, she’r bazmi bo‘ladi, bildingmi? Shahardan zo‘r shoirlar kelgan, bildingmi? Ular cho‘lquvarlar bilan kattakon uchrashuv o‘tkazadi. Hozir mehmonlar tuxum yutgani kirib ketishdi, bildingmi? (X.To‘xtaboyev)

– Voy duganajon, bu yerda-chi, hozir zo‘r she’r bazmi bo‘larmish. Shahardan zo‘r-zo‘r shoirlar kelganmish. Ular cho‘lquvarlar bilan kattakon uchrashuv o‘tkazarmish. Ular-chi, hozir tuxum yutgani kirib ketishibdi.

Birinchi nutq o‘g‘il bolaning nutqi ekanligi “og‘ayni” so‘zidan bilinib turibdi. Chunki o‘g‘il bolalar bir-birlariga shunday murojaat qilishadi.

Ikkinchi nutq esa qiz bolaning nutqi ekanligi “duganajon” so‘zidan ma’lum, chunki yoshi katta ayollar o‘z nutqida *ovsin, opovsi, egachi* kabi murojaat so‘zlarini ishlatadi. Nutqning qaysi jinsga tegishli ekanligini ajratishda bu undalmalardan tashqari yana qanday belgilar bor?

Birinchi nutqda qo‘llangan *sen* murojaati so‘zlovchi bilan tinglovchining yoshi teng ekanligini (bunday murojaat ko‘pincha o‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalarga xos), *bildingmi* so‘zining takrorlanishi so‘zlovchining hamma voqeadan xabardor ekanligidan mamnunligini bildirib (bunday ta’kidlash ham o‘smirlarga xos), bolalarcha samimiylik, ochiqlik belgilari namoyon bo‘lmoqda.

Ikkinchi nutqqa kelsak, *voy, -chi, -mish* kabi lingvistik belgilar nutqning ayol kishiga tegishli ekanligini bildirmoqda. Bu vositalar orqali ayollar xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatlar yuzaga chiqmoqda.

Bo‘lib o‘tgan bir voqeani erkak va ayol nutqining daromad qismi orqali ifodalanishini qiyoslab ko‘raylik: Erkak nutqi: *Juda qiziq ish bo‘ldi-da!* Ayol nutqi: *Voy, men aytmay, siz eshitmang! Aytsam ham, ishonmaysiz!*

Demak, ayollar nutqiga xos bo‘lgan so‘zlarni hamda alohida talaffuzni ham e’tiborga olishimiz lozim.

Diskursda hududiy xoslanish. Ijtimoiy-lisoniy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, nafaqat turli millat kishilarining, balki turli hududlarda yashovchi bir millatga mansub kishilarning diskurslari ham o‘zaro farqlanib turadi.

Biz diskursning hududiy xoslanishini mulozamat, manzirat misolida ko‘rib chiqamiz. Asli arabcha

bo‘lgan *mulozamat, manzirat* so‘zlari o‘zbeklar nutqida kishining ko‘nglini olish uchun ko‘rsatiladigan iltifot, e’zoz-ikrom, takalluf ma’nosida qo‘llanadi. Faqat “mulozamat”da ijobiy, “manzirat”da esa salbiy ma’no ottenkasi borligi bilan farqlanib turadi. Masalan,

– Qani, marhamat qilsinlar! – dedi Danak qori qo‘li bilan eshikni ko‘rsatib.

– Yo‘q, yo‘q, o‘zlaridan bo‘lsin, – dedi Bodom qori kalta qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib.

– Yo‘g‘-ye, pirim, marhamat, boshlasinlar!

– O‘zlaridan bo‘lsin, taqsir.

– Yo‘q, yo‘q, pirim...

Xuddi shu paytda ikkovlari ham eshikka baravar yaqinlashib, bir vaqtda yonbosh bo‘lishib ichkari kirmoqchi bo‘lishgan edi, qorinlari katta emasmi, eshikka qisilib qolishdi (X.To‘xtaboyev).

Ushbu diskursdan ko‘rinib turibdiki, mulozamat me’yoridan oshib ketsa, manziratga aylanadi. Bu hol Danak qori va Bodom qorining bir-birlarini *taqsir, pirim* deb nomlashlarida ham manzirat ko‘rinadi. Ayniqsa, diskursning oxirgi bandida manzirat ochiq ko‘rsatib berilgan.

Quyidagi diskurslarni tahlil qilib ko‘raylik:

1. *Darhol eshik ochilib, Sabhu kirdi. Uning katta-katta qop-qora ko‘zlari bolalarcha bir samimiyat bilan porlab turardi.*

– Kel, o‘g‘lim, o‘tir! (O.Yoqubov)

2. *Assalomu alaykum, xolajon! – dedim kelganimni sezdirish uchun.*

– Mulla bo‘ling, mulla bo‘ling, – dedi folbin xolam – asta o‘rnidan turib o‘tirdi, – kel, o‘g‘lim, kel.

Ikkala diskurslarda ham katta yoshdagi kishi kichik yoshdagi bolani kutib olyapti. Ushbu diskurslardagi *o‘g‘lim, mulla bo‘ling* murojaatlari mulozamatga kiradi. *Mulla bo‘ling* mulozamati esa milliy xarakterga ega, katta yoshdagi kishilarning yosh bolalarning salomiga alik olgandan keyin qo‘shib qo‘yadigan mulozamati.

Kishilarga mulozamat, manzirat qilish usul va darajalari jihatidan O‘zbekistonning turli hududlarida yashovchi kishilar diskursi birmuncha farqlanadi. Bu farqlar etnoslararo (interetnik) kommunikatsiyada ishlatiluvchi turli til va shevalar bilan ham bog‘liq. El orasida aytib yuriladigan “Qo‘qoncha manzirat”, “Samarqandcha manzirat” kabi jumlalar ham bekorga chiqmagan.

O‘zbekistonning Buxoro, Surxondaryo, ayniqsa, Xorazm viloyatlarida hatto mehmonga ham ortiqcha mulozamat ko‘rsatish unchalik urf emas. Bu narsa dasturxonga keltirilgan nonni ushatib qo‘ymaslik (sindirmaslik), noz-ne’matlardan olish, yeb o‘tirish uchun ortiqcha qistamaslik odatlaridan ham bilinib turadi. Ularda mulozamat ko‘rsatishning boshqacha usullari qo‘llaniladi. Ammo vodiy, ayniqsa, Marg‘ilon shahrida fatik kommunikatsiyaning hech qaysi xalqda uchramaydigan noyob turlarining guvohi bo‘lish mumkin. Bu hududga xos diskurs belgilaridan bo‘lgan “Eshikka (uyga) opketey”, “Eshikka o‘tamiz”, “Mehmon bo‘p keting”, “Bir piyola choyimiz bor”, “Bir chimdim osh qilamiz” kabi jumlalarni bu yerda har on, har qadamda eshitish mumkin. Biron yumush bilan eshik qoqib kelgan kishi albatta uyga taklif qilinadi. Mehmon kirib kelgan paytdan boshlab hovlida va uyda hech kim qo‘liga supurgi ushlamaydi, baland ovoz bilan gapirilmaydi, sho‘xlik qilgan, mehmonning oldida erkalagan bolalarga ham qattiq tanbeh berilmaydi. Mehmonning qo‘liga iliq suv berilib, oppoq sochiq tutiladi va mehmonni xonaning eng to‘risiga o‘tqaziladi. Mehmonning oldida mezbon hech qachon to‘rga o‘tirmaydi. Dasturxon ustida “oling”, “olishib o‘tirsinlar”, “nimaga hech narsa yemayapsiz”, “bemalol o‘tirsinlar” kabi iltifotli jumlalar ko‘p ishlatiladi. Mehmonning vaqti tig‘izroq bo‘lsa, tezda osh (palov) damlanadi. Palov katta tovoqqa suzilib, o‘rtaga qo‘yiladi. Umumiy tovoqda osh yeyilayotgan paytda go‘sht yoki ilikni mehmonning oldiga surib qo‘yish orqali ham manzirat qilish odati bor. Faqat marg‘ilonliklargagina xos bo‘lmagan bu odat Muqimiyning “Osh yesalar, o‘rtada sarson ilik” satrida o‘zining badiiy ifodasini topgan.

Diskursda ma’lumot darajasiga xoslanish. Diskurslarni tahlil qilishda ma’lumot darajasiga ko‘ra ham ajratishga harakat qildik. Ma’lumot darajasining diskursga ta’sirini aniqlash uchun bir diskursni yoshida uncha farq bo‘lmagan, ammo ma’lumot darajasi har xil bo‘lgan kishilarning interpretatsiyasini solishtirib ko‘rdik. Masalan,

– Sopol tovoqning narxi arzon bo‘lsa ham, mehnati qimmat. Tilla qimmatbaho bo‘lganligi uchungina mehnati qimmat. Sopol idishni ham, tilla idishni ham inson yaratadi. Inson mehnatini esa qadrlash kerak.

– Go‘zallik – soddalikda. Sopol tovoqni soddalikka o‘xshatdim. Soddalik tugadimi, xudbinlik boshlanadi, shu sababdan dod solish kerak. Xudbin kishi hech qachon o‘zgarmaydi, ya’ni tilla idish sinsa ham, qimmati o‘zgarmaydi.

– Sopol tovoq o‘zi mo‘rt bo‘ladi, sinishi oson. Tilla idishni esa hamma avaylab ishlatadi, agar bo‘lsa. Tilla idish – bu boylik.

– Tilla buyum sinsa ham tillaligicha qoladi. Singan sopol tovoqni ishlatib bo‘lmaydi.

– Sopol tovoq bu – ilm. Tilla idish boylik. Ilm olmasdan o‘tkazgan yillaring uchun dod sol, boyliging ketsa parvo qilma. Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi.

Misollarni tanlashda bir-biridan keskin farq qiluvchi diskurslarni ajratishga harakat qildik. Yuqoridagi diskurslardan ko‘rinib turibdiki, diskursning mohiyatiga yetib borish uchun ham muayyan ma’lumotga ega

bo‘lish kerak. Uchinchi va to‘rtinchi diskurslarning mualliflari yoshi katta bo‘lsa-da, diskurs mohiyatiga yetib bormaganligi ma’lum. Oltinchi diskurs muallifi “tushunmadim” degan javobni berdi. Birinchi va ikkinchi diskurs mualliflari kollej o‘qituvchilari, oltinchi diskurs muallifi esa oliy ta’lim o‘qituvchisidir. Ko‘rinadiki, muayyan ma’lumotga ega bo‘lmagan kishilar diskursni yuzaki tushunishadi, mohiyatga yetib bormaydi. Ammo ma’lumoti oliy bo‘lgan kishilarning ham matn interpretatsiyasi bir xil darajada emas, ularning dunyoqarashi, egallagan bilimi, hayotiy tajribasi, tahlil qilish va xulosa chiqara olish ko‘nikmasi diskurs interpretatsiyasida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Hatto ma’lumotga ega bo‘lmagan, ammo kitoblarni ko‘p o‘qib yurgan kishilar ham tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi mumkin, faqat bu xulosalar qay darajada ekanligi bilan farqlanadi.

Situativ diskurs – diskursning ijtimoiy vaziyatga xoslangan turi. Diskursning ijtimoiy vaziyatga xoslangan situativ variantligi aniq ijtimoiy sharoitga qarab, nutqiy aktda yuz beradigan xilma-xil ijtimoiy o‘zgarishlar, vaziyatlar bilan chambarchas bog‘lanadi. Diskursning ijtimoiy vaziyatga xoslangan situativ variantliligi shaxsning ijtimoiy sharoit va kommunikativ harakat sharoiti bilan munosabatini ifodalaydi. Mana shu munosabatlar asosida diskursda nutq akti birliklarining zaruri ishlatiladi: boshliq – xodim , o‘qituvchi – o‘quvchi, ona – o‘g‘il, aka – uka, tanish – notanish singari. Bu munosabatlarni ikki turga ajratish mumkin:

1) simmetrik vaziyat – bir pog‘onali, teng bo‘lgan muomala;

2) asimmetrik vaziyat – turli darajadagi, teng bo‘lmagan muomala [5. B. 15].

Simmetrik vaziyatda suhbatdoshlarning ikkisi ham bir xil o‘rinni tutadi, ularning ikkalasi ham boshqaruv vazifasini bajarishi mumkin yoki aksincha: talaba – talaba, o‘qituvchi – o‘qituvchi yoki xodim – xodima singari. Simmetrik vaziyatda diskurs erkin bo‘ladi va shu sababdan, ko‘pincha, ijobiy tarzda bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi o‘quvchining fikrini osongina tushunadi, o‘qituvchining fikrini tushunishi esa qiyinroq kechadi. Yoki xodim xodima bilan erkin muloqotda bo‘ladi va bir-birini tushunishi uchun hech qanday to‘sqinlik qiladigan vaziyat bo‘lmaydi. Masalan, quyidagi diskurslarni tahlil qilaylik.

1-vaziyat.

– Kiravermay, o‘tirdingmi? – dedi Asadbek. – Bunaqa odating yo‘g‘idi-ku?

– Hurmating bor, oshnam. Biz bir bekorchi odam bo‘lsak, – u shunday deb qo‘ltig‘iga qistirib olgan eski gazetga o‘rog‘liq narsani uzatdi.

– To‘yga kelolmadim. Yaxshi o‘tkazib oldingmi?

Asadbek kulimsirab gazitni ochaboshladi. Jalil nima keltirganini u bilardi. Bilsa ham do‘stining ko‘ngli uchun ochishga majbur edi. Ochmasa Jalil bobillab berishi tayin. Eski gazetga eski kalish o‘ralgan edi. Bu o‘sha eski falsafa – sudrab yurgan chorig‘ingni unutma (Tohir Malik).

2-vaziyat.

– Hoy bola, horma! – dedim g‘o‘zaning ichidan o‘t yulib yurgan bir bolaning yoniga borib.

– Ishingni qil, – dedi u boshini ko‘tarmay.

– Horma, deyapman.

– Ishingni qil deyapman, – shunday deb notanish bola sekin boshini ko‘tardi. Ko‘tardi-yu, uyalganidan bo‘lsa kerak, sholg‘omdek qizarib ketdi.

– Kechirasiz, – dedi peshonasidagi terini artib, – men sizni o‘zimizning Shavkat deb o‘ylabman.

Birinchi vaziyatda ikki do‘stning simmetrik diskursi berilgan. Diskursning erkinligi (II shaxs birlikdagi murojaat, mulozamatlarning yo‘qligi), diskursdagi so‘zlarning tanlanishi (*oshna, bobillab berish*) simmetrik diskurs belgilaridir. Oshnasining olib kelgan narsasini oldindan bilishi ham ularning yaqin muloqotidan darak beradi, chunki ular yoshligidan birga katta bo‘lishgan, bir kalishni navbatma-navbat kiyib maktabga qatnashgan.

Ikkinchi vaziyatda ikki notanish yosh bolaning muloqoti berilgan. Ularning simmetrik diskursidagi o‘ziga xoslik muloqotning erkinligi, murojaatning soddaligi (*Hoy bola*), tengdoshlar suhbati ekanligidadir.

Asimmetrik vaziyatda esa kommunikatsiya ishtirokchilarining biri boshqaruvchi bo‘ladi, unda suhbatdoshlar turli pog‘onada “joylashadilar”: boshliq – xodim, ota – o‘g‘il, o‘qituvchi – talaba, xo‘jayin – xizmatkor kabi. Asimmetrik vaziyatda diskurs majburiylik xususiyatiga ega bo‘ladi. Buning natijasida esa turli tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin. Masalan:

1-vaziyat.

Asadbek bir to‘xtamga kelishga ulgurmay, Hosil boyvachcha qo‘ng‘iroq qildi.

– Akaxon, to‘yning charchoqlari chiqay dedimi? – Ammo olamjahon zo‘r to‘y qildingiz-da! Hormang, deb supraqoqdiga borishga vaqt bo‘lmadi. To‘yingizning ertasiga Farg‘onaga jo‘nab qoldim. Bugun qaytdim-u okaxonni bir yo‘qlab qo‘yay dedim.

2-vaziyat.

– Bo‘tam, – deb chaqiradi qori pochcham.

– Labbay, taqsir!

– Qani, belimni ikkita siqib tashlang-chi! – deb buyuradi qori pochcham... (X.To‘xtaboyev).

3-vaziyat.

– Qani, Hoshimjon, beriroq keling-chi, – deb qo‘ydi.

So‘rining chekkasiga omonatgina o‘tirdim. Buvijonim nima ish bilandir boqqa kirib ketdi.

– Kanikulni yaxshi o‘tkazdingizmi? – so‘radi muallim.

– Yaxshi o‘tkazdim.

– Qanaqa kitoblar o‘qidingiz?

– Kitob o‘qimadim, domla.

– Nimaga o‘qimadingiz?

– Kitob o‘qisam, shu deng, uyqum kelib, yuragim qisilaveradi.

4-vaziyat.

– Arabistondagi eng katta cho‘lning nomi nima?

– Hali u tomonlarga borganim yo‘q.

– Janubiy Amerika o‘rmonlarida yashaydigan eng katta qushning nomini aytib berolmaydilarmi?

– Yo‘q aytib berolmayman.

– Indoneziyada nechta orol borligini so‘rasam, janobi sehrgarni xafa qilib qo‘ymaymanmi?

– Xafa bo‘laman, boshqasini so‘rang.

– Dunyodagi eng baland sharshara qaysi mamlakatda joylashganligini so‘ramoqchi edim?

– Iy-ye, amaki, siz aytganlar hammasi rebus-ku. Mendan geografiya to‘g‘risida so‘rang-da.

Birinchi vaziyatdagi diskursda manziratning mavjudligi (“Ammo olamjahon zo‘r to‘y qildingiz-da!”), murojaat turi (“Akaxon”) kabi belgilar asimmetrik vaziyatdagi diskurs belgilaridir. So‘zlovchi tinglovchidan past pog‘onaga joylashganligi aniqlanadi, ya’ni tinglovchi boshliq, so‘zlovchi unga bo‘ysunadi. Demak, ushbu diskursda xo‘jayin-xizmatkor ziddiyati yuzaga chiqadi.

Ikkinchi vaziyatda ham asimmetrik diskurs yuzaga chiqadi, faqat bu diskursda yoshi katta va yoshi kichkina zidligi yuzaga chiqadi. Ammo yuqoridagi diskursdan farqli belgisi shundaki, bunda manzirat emas, ijobiy mulozamat mavjud.

Uchinchi vaziyat geograf olim bilan o‘quvchi ziddiyati asosida shakllangan. Olim bilan o‘quvchi muloqotining o‘ziga xosligi shundaki, ular orasidagi ziddiyat bilimga, dunyoqarashga, tajribaga asoslangan bo‘lib, o‘quvchi geografiya haqidagi savollarni rebusga adashtiradi, geograf olim uchun juda oddiy bo‘lgan savol Hoshimjon uchun juda qiyin ko‘rinadi. Geografiya fanidan bilimga ega emasligi Hoshimjonni noqulay holatga solib qo‘yadi. Shu sababdan bu diskurs ham teng bo‘lmagan, asimmetrik diskursga kiradi.

Demak, diskursning sotsial xoslangan variativligini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Diskursning sotsial variantliligi			
Stratifikatsion (*ijtimoiy guruhga xoslangan ichki belgilar*)		Situativ (*ijtimoiy vaziyatga xoslangan tashqi belgilar*)	
sotsial differensiya		Simmetrik (teng muomala)	Asimmetrik (pog‘onali muomala)
1) o‘zgarmas belgilar	2) o‘zgaradigan belgilar		
3) sinfiy 4) jinsi 5) kasbi	6) yoshi 7) ma’lumot darajasi	Boshliq – boshliq Talaba – talaba O‘qituvchi – o‘qituvchi	Boshliq – xodim O‘qituvchi – o‘quvchi Ota – o‘g‘il

Diskursning sotsial variantliligi uning turlicha talqinlarini keltirib chiqaradi. Ma’lum diskursning turli kasb egalari tomonidan turlicha talqin qilinishi yoki ma’lumotga ko‘ra turlicha tushunilishi, jinsiga, yoshiga ko‘ra qabul qilinishi diskursning sotsial faktori orqali ifodalanadi.

Diskurs jamiyatning bir-biriga kommunikativ munosabatlarda majburiyatli a’zolari o‘rtasidagi o‘z-o‘zidan, so‘zsiz, kelishilgan bitimlari sohasiga kiradi. Diskurs haqidagi tadqiqotlar ilmiy hayotga shu paytgacha ma’lum bo‘lmagan, tilshunoslik tomonidan qabul qilinmagan va ko‘zga tashlanmagan faktlarni olib kirdi.

Diskursdagi ma’lum xossalar suhbatdoshlarning bilimi, fikri, qiziqishlari, maqsadi (ifodaning yuzaga kelishi) va uning natijasi deyish mumkin.

Muayyan bir tilda gaplashuvchi jamiyatning sotsial guruhlanishi xilma-xil bo‘lib, har qaysi guruhning o‘ziga xos lingvistik belgilari mavjud. Jumladan, hududiy farqlanish, kasbiy yoki jinsiy farqlanish va boshqalar. Shunga ko‘ra, har qaysi sotsial guruhning o‘z lingvistik belgisiga ko‘ra farqlanishi, uning ijtimoiy sabablarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. *Абдуллаев Ф.* Тил қандай ривожланади? – Тошкент: Фан, 1972. – 68 б.
2. *Макаров М.Л.* Основы теории дискурса. – Москва: Гнозис, 2003. – 280 с.
3. *Щерба Л.В.* Языковая система и речевая деятельность. – Ленинград: Наука, 1974. – 428 с.
4. *Роджер Т.Б.* Социолингвистика. – Москва: Международные отношения, 1980. – 320 с.
5. *Фирсова Н.М.* Испанский речевой этикет. – Москва: ИНФРА-М, 2001. – 183 с.

6. *Алпатов В.М*. Япония. Язык и общество. – Москва: Наука, 1988. – 136
7. *Дониёров Х*. Кипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 114 б.
8. *Искандарова Ш*. Аёллар нутқида ундов сўзларининг қўлланиши // Республика ёш филолог олимларнинг анъанавий илмий конференцияси материаллари. – Тошкент, 1991. – Б. 61– 63.
9. *Коноваленко И.В*. Роль гендерного фактора в коммуникативном поведении мужчин и женщин: дисс… канд.филол.наук. – Омск, 2003. – 90 с.
10. *Гродеков Н.И*. Киргизы и каракиргизы Сыр-Дарьинской области. – Ташкент: Типо-Литография С.И.Лахтина. – 1889. – 298 с.

SOCIOLOGICAL FACTOR IN DISCOURSE

Hafizaxon R. Zakirova[1]

Ilmiy xabarnoma. Syeriya: Gumanitar tadqiqotlar – Sciyentific Bullyetin. Syeriyes: Humanitarian Studiyes. 2024. 7(83). 72-83.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *discourse, stratification, situational, sociallinguistics, changing features, non-changing features.*

Since language as an essence lives in the consciousness of people, it manifests itself in the speech of each individual and is considered the main factor in the implementation of social relations in society.

Therefore, language is closely connected with society, with its yesterday, today and tomorrow. Any changes in society, social progress are directly reflected in the language. The development of language depends on the development of society.

The isolation of a set of actions from the complex structure of a sentence has led to a change in the attitude of most linguists towards language, especially towards its communicative function.

Discourse is the smallest part of a speech act, and when analyzing it, it is necessary to take into account all factors - linguistic, extralinguistic, pragmatic. In fact, in the process of communication, we exchange ideas not according to the formal or substantive content of individual units, but on the basis of their general properties, harmonizing with each other.

Sociolinguistics focuses on the variable units of social groups and the language they use and attempts to relate these variable units to the traditional demographic units of the social sciences: age, gender, membership in a particular socioeconomic class, status as a territorial large group, and so on.

Social factors play an important role in discourse, they determine social relations between communicants. Therefore, they have a high social choice. The social variant of discourse can be divided into two groups according to its characteristics:

1) stratification (specific for a social group) discourse;

2) situational (specific for a social situation) discourse.

Stratified discourse is a type of discourse specific to a social group. The variability of a discourse adapted to a social group is directly related to the social structure of society, which is expressed in linguistic and speech differences visible in different social strata and groups. Among the concepts associated with the variability inherent in a social group, such features as social and socio-demographic are distinguished, i.e. belonging to a class, social group, profession, level of education, gender, age. These symbols are divided into fixed and variable. Variable characters, of course, influence the discourse.

The following are constant features: 1) professional discourse; 2) gender discourse; 3) region-specific discourse. The following are variable features: 1) information-level-specific discourse; 2) age-specific discourse.

Situational discourse is the external features specific to a social situation. Symmetrical equal treatment (manager-manager, student-student, teacher-teacher), asymmetrical treatment at the level of discourse (manager-employee, teacher-student, father-son). These characteristics were analyzed using questionnaires from different social groups.

Thus, the social grouping of a society speaking a certain language is diverse. Accordingly, each group has its own linguistic features. Therefore, it is important to distinguish each social group by its

linguistic feature and study its social causes.

References:

1. Abdullayev, F. (1972). *Til qanday rivojlanadi*? [How does language develop?]. Tashkent: Fan.
2. Makarov, M.L. (2003). *Osnovy teorii diskursa* [Fundamentals of Discourse Theory]. Moscow: Gnozis.
3. Shcherba, L.V. (1974). *Yazykovaya sistema i rechevaya deyatelnost* [Language system and speech activity]. Leningrad: Nauka.
4. Rodzher, T.B. (1980). *Sotsiolingvistika* [Sociolinguistics]. Moscow: Mezhdunarodnye otnosheniya.
5. Firsova, N.M. (2001). *Ispanskij rechevoj etiket* [Spanish speech etiquette]. Moscow: INFRA-M.
6. Alpatov, V.M. (1988). *Yaponiya. Yazyk i obshchestvo* [Japan. Language and Society]. Moscow: Nauka.
7. Doniyorov, H. (1979). *Qipchoq dialektlarining leksikasi* [Lexicon of Kipchak dialects.]. Tashkent: Fan.
8. Iskandarova, Sh. (1991). Ayollar nutqida undov so‘zlarining qo‘llanishi [The use of exclamations in women’s speech]. In: *Respublika yosh filolog olimlarning an’anaviy ilmiy konferensiyasi materiallari* [Materials of the Republican Scientific Conference of Young Philologists]. Tashkent. Pp. 61- 63.
9. Konovalenko, I.V. (2003). *Rol gendernogo faktora v kommunikativnom povedenii muzhchin i zhenshchin* [The role of gender factor in communicative behavior of men and women]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Omsk.
10. Grodekov, N.I. (1989). *Kirgizy i karakirgizy Syr-Darinskoj oblasti* [Kirghiz and Karakirghiz of the Syr Darya region]. Tashkent: Tipo-Litografiya S.I.Lahtina.

Muallif haqida ma’lumot:
ZAKIROVA Hafizaxon Razakovna – filologiya fanlari nomzodi, Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori. E-mail: zakiheart@mail.ru